



**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI VAZIRLIGI
BUXORO DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI**

FILOLOGIK TADQIQOTLARNING YANGI BOSQICI: ZAMONAVIY TENDENSIYALAR VA ISTIQBOLLAR

III XALQARO ILMIY-AMALIY ANJUMAN MATERIALLARI

2025-yil, 21-OKTABR

BUXORO – 2025

ANJUMAN DASTURIY QO'MITASI

- | | | |
|-----|----------------|--|
| 1. | B.B. Ma'murov | - Buxoro davlat pedagogika instituti rektori, rais; |
| 2. | Z.M. Muqimov | - Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektor, rais muovini; |
| 3. | G.R. Akramova | - Ilmiy – tadqiqotlar, innovatsiyalar va ilmiy pedagogik kadrlar tayyorlash bo'limi boshlig'i, a'zo; |
| 4. | X.A. Xaitov | - Tillar fakulteti dekani, a'zo; |
| 6. | U.S.Amonov | - O'zbek tili va adabiyoti kafedrası mudiri, a'zo; |
| 7. | D.B.Axmedova | - O'zbek tili va adabiyoti kafedrası professori, a'zo; |
| 8. | G.B.Rustamova | - O'zbek tili va adabiyoti kafedrası dotsenti, a'zo; |
| 9. | G.R.Mirxanova | - O'zbek tili va adabiyoti kafedrası dotsenti, a'zo; |
| 10. | R.A.Saidova | O'zbek tili va adabiyoti kafedrası professori, a'zo; |
| 11. | Y.U.Nurova | - O'zbek tili va adabiyoti kafedrası dotsenti, a'zo; |
| 12. | Sh.Sh.Nizomova | - O'zbek tili va adabiyoti kafedrası dotsenti, a'zo; |
| 13. | N.H.Hojiyeva | - O'zbek tili va adabiyoti kafedrası dotsenti, a'zo; |
| 14. | M.U.Usmonova | - O'zbek tili va adabiyoti kafedrası katta o'qituvchisi, a'zo; |
| 15. | N.A.Bafoyeva | - O'zbek tili va adabiyoti kafedrası o'qituvchisi, a'zo; |
| 16. | N.O. Avazova | - O'zbek tili va adabiyoti kafedrası o'qituvchisi, a'zo; |
| 17. | S.T. Latipova | - O'zbek tili va adabiyoti kafedrası o'qituvchisi, a'zo |

ILMIY ANJUMANNING TASHKILIY QO'MITASI

- | | | |
|-----|-----------------|---|
| 1. | M.M. Bafayev | - O'quv ishlari bo'yicha prorektor, rais; |
| 2. | M.L. Umedjanova | - Yoshlar masalalari va ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha birinchi prorektor, rais muovini; |
| 3. | U.S. Amonov | - O'zbek tili va adabiyoti kafedrası mudiri, a'zo; |
| 4. | F.R.Rustamov | Tillar fakulteti Yoshlar bilan ishlash bo'yicha dekan o'rinbosari |
| 5. | L.F. Sharipova | - O'zbek tili va adabiyoti kafedrası professori, a'zo; |
| 6. | M.Y. Ro'ziyeva | - O'zbek tili va adabiyoti kafedrası professori, a'zo; |
| 7. | Sh.M. Istamova | - O'zbek tili va adabiyoti kafedrası dotsenti, a'zo; |
| 8. | M.B. Sharipova | - O'zbek tili va adabiyoti kafedrası dotsenti, a'zo; |
| 9. | G.B. Rustamova | - O'zbek tili va adabiyoti kafedrası dotsenti, a'zo; |
| 10. | R.R. Xalilova | - O'zbek tili va adabiyoti kafedrası dotsenti, a'zo; |
| 11. | M.U. Usmonova | O'zbek tili va adabiyoti kafedrası katta o'qituvchisi, a'zo; |
| 12. | F.K. Nurova | - O'zbek tili va adabiyoti kafedrası katta o'qituvchisi, a'zo; |
| 13. | N.N. Mirjonov | - O'zbek tili va adabiyoti kafedrası o'qituvchisi, a'zo; |
| 14. | M.Y. Latifova | - O'zbek tili va adabiyoti kafedrası o'qituvchisi, a'zo; |
| 15. | M.A. Tilavova | - O'zbek tili va adabiyoti kafedrası o'qituvchisi, a'zo; |
| 16. | M.V. Jabborova | - O'zbek tili va adabiyoti kafedrası o'qituvchisi, a'zo. |

To'plam O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2024-yil 27-dekabrda "2025-yilda o'tkazilishi rejalashtirilgan xalqaro va respublika miqyosidagi ilmiy va ilmiy-texnik tadbirlar ro'yxatini tasdiqlash to'g'risida"gi 496-sonli buyrug'i rejasida belgilangan tadbirlarning bajarilishini ta'minlash maqsadida Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi Buxoro davlat pedagogika institutida o'tkazilgan "Filologik tadqiqotlarning yangi bosqichi: zamonaviy tendensiyalar va istiqbollar" mavzusidagi III xalqaro ilmiy-amaliy anjuman materiallari asosida tuzildi.

Mas'ul muharrir:

G.B. Rustamova - filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

Taqrizchilar:

D.S. O'rayeva - filologiya fanlari doktori, professor

F.S. Safarova - filologiya fanlari doktori (DSc), dotsent

XALQARO BAHOLASH DASTURINING TA'LIM SIFATINI OSHIRISHDAGI ROLI

H.A.Ubaydova

BuxDPI O'zbek tili va adabiyoti kafedrası o'qituvchisi

M.N.Karimova

BuxDPI O'zbek tili va adabiyoti ta'lim yo'nalishi magistranti

Annotatsiya. Ta'lim-tarbiya jarayoniga qo'yilgan yangi talablar, quruq ilmiy xulosa emas, amaliy natijaning muhimligi, olingan bilimlarni kompetensiyaviy asosda hayotga tatbiq eta olish ko'nikmasining shakllantirilishi borasidagi pedagogik xulosalar asosidagi yondashuv mazkur maqolaning nazriy asosini belgilaydi.

Kalit so'zlar. Xalqaro talabalar bilimini baholash dasturi, o'qish savodxonligi, PIRLS, TIMSS, PISA, TALIS.

Abstract. Strengthening the theoretical basis of this article based on new requirements for the educational process, pedagogical priorities aimed at the formation of practical results, not dry scientific research, and the ability to apply the acquired knowledge to life on a competency-based basis.

Keywords. International Student Knowledge Production Program, reading proficiency, PIRLS, TIMSS, PISA, TALIS.

Аннотация. Теоретическая основа данной статьи основана на новых требованиях к образовательному процессу, педагогических приоритетах, направленных на формирование практических результатов, а не сухих научных исследований, и умении применять полученные знания в жизни на основе компетентности.

Ключевые слова. Международная программа по производству знаний для студентов, владение навыками чтения, PIRLS, TIMSS, PISA, TALIS.

Bugungi kunda barcha sohalar qatori ta'lim tizimida ham tub islohotlar amalga oshirilmoqda. Buni, eng avvalo, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar mahkamasining 2017-yil 6-apreldagi 187-son yangi tahrirda qabul qilingan "Umumiy o'rta va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limining davlat ta'lim standartlarini tasdiqlash to'g'risida"gi qarorida belgilab berilgan vazifalar misolida ham ko'rishimiz mumkin. [1] Unga ko'ra: umumiy o'rta ta'limning malaka talablari, umumta'lim fanlari bo'yicha ta'lim mazmunining majburiy minimumi va yakuniy maqsadlariga, o'quv yuklamalari hajmiga hamda ta'lim sifatiga qo'yiladigan talablar qatoriga bilim, ko'nikma, malakadan tashqari kompetensiya ham qo'shildi va u mavjud bilim, ko'nikma va malakalarni kundalik faoliyatda qo'llay olish qobiliyatini o'z ichiga oladi. [1] Demak, zamonning o'zi amaliy natija bermaydigan har qanday bilimni siqib chiqarmoqda. Bu ta'lim shakllari, uslub va usullarini qaytadan ko'rib chiqib zamon talablariga moslashni talab etmoqda. Bu borada yurtboshimiz Sh.M.Mirziyoyevning quyidagi fikrlari dasturulamal vazifasini o'taydi: "Bugungi kunning dolzarb vazifasi: o'quvchilarimizni yuksak ma'naviyatli, chuqur bilimli, keng mushohadali, savodxon va ijodkor, eng asosiysi, xalqaro baholash dasturlari talablariga to'la javob beradigan qilib tarbiyalashdir". [2] Mazkur ustuvor vazifa hukumat qarorlarida ham o'z aksini topmoqda. Jumladan, davlat ta'lim standartlariga ko'ra: umumiy o'rta ta'lim sifatini nazorat qilishning turlari qatorida ichki nazorat, tashqi nazorat, davlat va jamoatchilik nazorati bilan birgalikda milliy va xalqaro darajadagi baholash ham e'tirof etildi. [1]

2018-yil 8-dekabrda "Xalq ta'limi tizimida ta'lim sifatini baholash sohasidagi xalqaro tadqiqotlarni tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida" O'zbekiston Respublikasi Vazirlar mahkamasining 997-sonli qarori qabul qilindi. Qaror ijrosini ta'minlash borasida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar mahkamasi huzuridagi Ta'lim sifatini nazorat qilish davlat inspeksiyasi

hamda Xalq talimi vazirligi rahbarligida qator amaliy ishlar amalga oshirilmoqda. Ta'lim sifatini baholash sohasidagi xalqaro tadqiqotlar quyidagilardan iborat:

- PIRLS - Progress in International Reading and Literacy Study. Boshlang'ich sinf o'quvchilarining matnni o'qish va tushunish darajasini baholash xalqaro dasturi (4-sinf o'quvchilari o'rtasida).

- TIMSS - Trends in International Mathematics and Science Study. Matematika va tabiiy yo'nalishdagi fanlardan savodxonlik darajasini baholash bo'yicha xalqaro dastur (4-8-sinf o'quvchilari o'rtasida).

- PISA - Programme for International Student Assessment. Xalqaro o'quvchilar bilimini baholash dasturi (15 yoshli o'quvchilarning o'qish, matematika va tabiiy yo'nalishdagi fanlardan savodxonlik darajasini hamda kreativ fikrlashini baholash).

- TALIS - The Teaching and Learning International Survey. Rahbar va pedagog kadrlarning umumiy o'rta ta'lim muassasalarida o'qitish va ta'lim olish muhitini hamda o'qituvchilarning ish sharoitlarini o'rganish bo'yicha xalqaro dastur.

O'quvchilarning ta'limiy yutuqlarini baholash bo'yicha xalqaro dastur (inglizcha - Programme for International Student Assessment, PISA) dunyoning barcha davlatlaridagi o'quvchilarning savodxonligini baholash va ushbu bilimlarini amaliyotda qo'llashni bilish darajasini baholovchi testdir. Bu testlar 3 yilda bir marotaba o'tkaziladi. Bunda 15 yoshli o'smirlar qatnashadi. U 1997-yilda ishlab chiqilgan. 2000-yilda birinchi marotaba qo'llanilgan.

Ushbu testlar Iqtisodiy hamkorlik va rivojlantirish tashkiloti tomonidan konsortsiumda yetakchi xalqaro ilmiy tashkilot bilan milliy markazlar ishtirokida tashkillashtirildi. Konsortsiumni Avstraliya pedagogik tadqiqotchilar birlashmasi (ACER) Niderlandiya (Gollandiya) milliy pedagogik o'lchovlar instituti (CITO) ko'magida boshqaradi, AQShning pedagogik test xizmati (ETS), Yaponiya ta'lim tizimadagi Milliy tadqiqotlar instituti (NIER); Aqsh Vestat (WESTAT) va dunyodagi boshqa nufuzli ta'lim tashkilotlari hamkorlikda olib boradi. 2000-2009 yillar natijasiga ko'ra Sharqiy Osiyo davlatlarida eng yaxshi o'rta ta'lim Xitoy, Koreya, Singapur va Yaponiya davlatlarida hisoblanadi, Yevropada esa birinchi o'ntalik liderlari Finlyandiya va Niderlandiya (Gollandiya) davlatlaridir.

PISA tadqiqotlari monitoring bo'lib, turli davlatlardagi ta'lim tizimidagi o'zgarishlarni aniqlash hamda solishtirishga yordam beradi va ta'limdagi strategik yechimlarni samarali baholab beradi. Bu tadqiqotlarning natijalari barcha davlatlarda juda katta ishtiyoq bilan kuzatiladi. Ushbu kuzatishni Olimpiada o'yinlari bilan tenglashtirish mumkin.

PISA dasturiga qatnashishdan maqsad testlarni o'tkazish yoki testga tayyorlash emas, o'quvchilarimizda XXI asr ko'nikmalarini shakllantirish, raqobatbardosh kadrlarni tayyorlash uchun mustahkam zamin yaratish hisoblanadi. PISA topshiriqlari xuddi shu o'zgarishlarni ta'lim tizimida aks ettirish, maktab o'quvchilarining haqiqiy hayotda kerak bo'ladigan hodisalarni tahlil qilish, ulardan xulosa chiqarish va muloqotga kirishish ko'nikmalarini qay darajada egallayotganini, ta'lim tizimining bu o'zgarishlarga qanchalik moslashayotganini aniqlash maqsadida o'tkaziladi. Testlarda asosiy e'tibor o'quvchilarning mazkur yo'nalishlar bo'yicha eng asosiy tushunchalarni bilishi, tub bilim va ko'nikmalarni egallagani, ulardan hayotiy vaziyatlarda foydalana olishiga qaratiladi! Bu testlarda o'quvchilarning dars davomida aniq mavzular bo'yicha o'rgangan bilimlarini sinovdan o'tkazish nazarda tutilmagan!

O'qish savodxonligi bu matnni xatolarsiz yoki tez o'qish malakasi emas. U insonning yozma matnni tushunish, foydalana olish qobiliyati, bu borada fikr yuritish va o'z maqsadiga erishish uchun o'qish bilan shug'ullanishi, o'z bilim va imkoniyatlarini kengaytirishi, ijtimoiy hayotda ishtirok etishidir. O'qish savodxonligida o'quvchilar axborotni topish va ajratib olish, integratsiyalash va sharhlash, matndan tashqari bilimlarga tayanish, tushunish va baholash, matnning mazmuni anglash kabi ko'nikmalarni hosil qiladi. O'qish savodxonligi – jamiyat tomonidan talab qilinadigan va inson tomonidan qadrlanadigan yozma tilning shakllarini idrok etish va amaliyotda qo'llay olish qobiliyatidir. Bir qarashda bu kabi topshiriqlar bilimni

oshirish uchun xizmat qiluvchi, aniq faktlarni eslab qolishni talab qiluvchi odatiy savol-topshiriqlardan biroz farq qilar, ammo: "Biz o'lchanishi oson bo'lgan narsani emas, muhim narsani o'lchashni o'rganmog'imiz lozim!". Bu kabi topshiriqlar inson fikrlash qobiliyatini o'stiradi. Bilim, ko'nikma, munosabat va qadriyatlarni kompetensiyaga aylantirib, harakatga yo'naltiradi, ya'ni ular insonning aqliy, ma'naviy-axloqiy tarbiyasiga ta'sir o'tkazishga qaratilgan bo'ladi. Bu esa badiiy adabiyotning birlamchi vazifasi sanaladi. Shunday ekan jahon tajribasini ta'lim tizimiga olib kirish sifat samaradorligining yanada oshishiga xizmat qilishi, shubhasiz.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. 2018-yil 8-dekabrda "Xalq ta'limi tizimida ta'lim sifatini baholash sohasidagi xalqaro tadqiqotlarni tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida" O'zbekiston Respublikasi Vazirlar mahkamasining 997-sonli qarori.

2. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi ta'lim sifatini nazorat qilish davlat inspeksiyasi, Ta'lim sifatini baholash bo'yicha xalqaro tadqiqotlarni amalga oshirish Milliy markazi. O'quvchilarning savodxonligini baholash bo'yicha xalqaro tadqiqot dasturi haqida. O'quv-uslubiy qo'llanma. – T.: 2019.

3. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Umumiy o'rta ta'lim to'g'risidagi nizomni tasdiqlash to'g'risida"gi 2017-yil 15-martdagi 140-son qarori;

4. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Umumiy o'rta va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limining davlat ta'lim standartlarini tasdiqlash to'g'risida"gi 2017-yil 6-apreldagi 187-son qarori;

5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016-yil 13-maydagi PF-4797-son "Alisher Navoiy nomidagi o'zbek tili va adabiyoti universitetini tashkil etish to'g'risida"gi Farmoni.